

ZARAUTSOY QOYATOSH SURATLARI

Sobirova Saodat Komiljon qizi

Sobirovasaodatkhon727@gmail.com

Annotatsiya: *Ibtidoiy jamoa davrining dastlabki rasmlari qoyatosh yuzalari, g'or, devor va shiftlariga, suyak yuzalariga ishlangan. Ularda turli hayvonlar tasvirlangan. O'zbekiston hududida joylashgan dunyoga mashhur Zarautsoy qoyatosh suratlari hozirgacha saqlanib qolgan.*

Kalit so'zlar: *Zarautsoy, ovchilik, termachilik, qoyatosh suratlar, ibtidoiy jamoa, tosh qurollar, ibtidoiy san'at, hayvon tasviri, paleolit, petroglyf.*

Аннотация: *Первые рисунки периода первобытной общины были выполнены на поверхностях скал, пещерах, стенах и потолках, а также на костных поверхностях. На них изображены различные животные. Всемирно известные наскальные рисунки Сараутсоя, расположенные на территории Узбекистана, сохранились до сих пор.*

Ключевые слова: *Заравтсой, охота, собирательство, наскальные рисунки, первобытная община, каменные орудия, первобытное искусство, изображения животных, палеолит, петроглиф.*

Annotation: *The first drawings of the period of the primitive community were made on rock surfaces, caves, walls and ceilings, and bone surfaces. Various animals are depicted on them. The world-famous Zarautsoy rock paintings located in the territory of Uzbekistan have been preserved until now.*

Keywords: *Zarautsoy, hunting, gathering, rock paintings, primitive community, stone tools, primitive art, animal depiction, Paleolithic, petroglyph.*

O'rta Osiyo hududida topib o'rganilgan qoyatosh suratlar ichida Obirahmat, Xo'jakent (Toshkent), Suratsoy, Soymolitosh (Farg'ona), Zarautsoy (Surxondaryo), Taqatosh (Jizzax) rasmlari mashhur. Bu tasvirlarning ko'pchiligida hayvonlarning alohida turgan, yotgan holati, hayvonlar to'dasi, ilk ov manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar uchraydi. Shunday dastlabki rasmlardan qoyaga o'yib ishlangan yotgan holdagi katta kiyik rasmi, oyog'iga yog'och sanchilgan buqa hamda chaqalash uslubida ishlangan buqa tasvirlari e'tiborli. Ularda ibtidoiy rassom hayvonga xos xususiyatlarni ko'rsatishga harakat qilgan. O'rta tosh asriga kelib odamlar katta bo'lmagan jamoalarga birlashib kata maydonlarni egallay boshladilar. Suv havzalari yaqinlarida, tog' yonbag'irlaridagi yerlarda, daryolar oralig'idagi orolchalarda yashaydigan



manzillar paydo bo'ldi. Ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanish rivojlandi. Bu davrga kelib toshga ishlov berish ham murakkablashdi. Hayvonlarni xonakilashtirish kengayib bordi. It va boshqa hayvonlar ibtidoiy odamning yordamchisiga aylandi. Inson hayotidagi bunday o'zgarishlar uning ma'naviy olamida ham o'z ifodasini topa boshladi. Uning tevarak-atrofga munosabati ham o'zgardi. Fikr yuritish, o'zini anglash va hislariga e'tibor berish rivojlanib bordi, ruh, o'zga olam tushunchalari murakkablashdi. Bu o'zgarishlar uning yaratgan buyumlari, ishlagan rasmlarida ham ifodasini topdi. Shu davrdan san'at rivojlanishiga xos xususiyatlar sezilarli darajada o'sdi. Agar qadimgi tosh asrining so'nggida yaratilgan rasmlar — tasvirlarga e'tibor bersak ularda hayvonlarning alohida ko'rinishi turgan, yotgan holda ishlanganligini ko'ramiz. O'rta tosh asriga kelib ana shu ibtidoiy realizm susayib hayvonlar tasviri shartli belgi yoki sharpasifat shakllarga aylana boshladi. Bu san'at rivojining tabiiy jarayoni edi. Chunki ibtidoiy rassom borliqni alohida-alohida tasvirlab, uni o'rganib o'zlashtirgani sari shu tajribalari asosida murakkab ko'rinishlar tasvirini ishlashga o'ta boshladi. Endi rassom uchun borliq ko'rinishlarini, misolimizda hayvonlar ko'rinishlari tasvirini ishlash asosiy maqsad emas, balki shu tasvirlarni umumlashtirib o'z fikr, his-tuyg'ularini ko'rsatish edi.

Zarautsoy petrogliflari Hisor tizmasining janubi-g'arbida, Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'rlarida, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Zarautsoy darasidagi eng qadimiy qoyatosh rasmlari hisoblanadi. 1912-yilda bu yerdan qizil angobda chizilgan 200 dan ortiq tasvir topilgan. Zarautsoy qoyatosh suratlarida itlar bilan yovvoyi buqalarni ovlayotgan odamlar tasvirlangan. Qoyatoshlarda hayvonlar, jumladan, yovvoyi buqa, it, tulki, cho'chqa, jayron, tog' echkisi, hasharotlar va turli buyumlar (kamon, nayza, o'roq) hamda niqobli odamlar o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Zarautsoy qoyalarida chizilgan 246 dan ortiq ibtidoiy rasmlarning hammasi bir vaqtda chizilmagan. Ba'zi tasvirlarning bir-birining ustiga qalashib ketganligi ham buni tasdiqlaydi. Zarautsoydagi dastlabki tasvirlar mezolit (o'rta tosh) davrining oxirlariga oid bo'lib, taxminan bundan 10 ming yillar muqaddam chizilgan. Qoyalardagi keyingi tasvirlar bronza davriga oid bo'lib, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarning mahsulidir. Zarautsoyda topilgan tasvirlar mamlakatimizdagi eng qadimiy rasmlar majmuasidir. Odamlar va hayvonlarning ana shu rasmlarida badiiy tasvir inson mehnati bilan, uning yashash uchun kurashi bilan bog'langan. Bu san'at ibtidoiy odam ongida vujudga kelgan qiyofalarni o'zining ibtidoiy tasviriga, qonunlariga ega bo'lgan asarga aylantirish mahoratiga asoslangan. Zarautsoy mamlakatimizda birinchi



marta san’atshunoslik qo’riqxonasiga aylantirilgan noyob manba sifatida ham juda ardoqlidir.



1-

rasm. Zarautsoy qoyatoshida ov jarayoni

Ibtidoiy rassom chaqalash, qirish, chizish asosida rasm chizish uslubini davom ettirgani holda uni yanada murakkablashtira boshladi, rassomlikka rang kirib keldi, tasvirlarida odamlar, uy hayvonlari, jumladan, itlar surati paydo bo’ldi.

Shu o'rinda Surxondaryo, Jizzax, Farg’ona vohasi rasmlari e’tiborli. Shu rasmlar ichida Zarautsoy rasmlari alohida o’rin egallaydi. Ayniqsa, Zarautsoy—Kamar g’oridagi ov manzarasi rasmi mashhur (1-rasm).

Zarautsoy rasmlarining boshlanish davri rasmlarida alohida yoki bir nechta hayvon tasviri ishlangan. Ibtidoiy rassom bu ishlarda o’zini kuzatuvchan va ko’rgan narsasini to’liq aks ettirishga intilgan va buning uchun juda oddiy va sodda shakllardan foydalangan. Bu rasmlardan ko’rinib turibdiki, ibtidoiy rassom hayvonlardan buqa xususiyatlarini yaxshi his etgan, ularning qudrati, kuchi va harakatdagi vaqtini ishonarli va haqqoniy tasvirlagan. Zarautsoy rasmlaridan “Ov qilish” kompozitsiyasi birmuncha murakkab, mazmuni esa davr kishilari hayoti, yashash tarzi va fikr yuritish qobiliyatini namoyish etadi. Odamlar kuchli hayvonlarni ov qilishda o’zlari uchun nafaqat kamon balki, himoyalani, hayvon psixologiyasini bilgan holda uning oldiga niqobda yashirinib borishi mumkinligini ko’rsatadi. Odamlar somondan pichan g’aramini eslatuvchi niqob yasab olganliklari ularni hayvon oldiga yaqin borish



imkoniyatini

bergan.



2-rasmda buqa ortida ustiga niqob tashlab olgan odam

Ovchilarning ko‘rinib turgan oyoqlari ularning harakatini bildiradi. Qo‘llaridagi qurollari ularning hujumga tayyor ekanligidan dalolat beradi. Odamlarga hamrohlik qilayotgan itlar ular bilan birga buqa oldiga yaqinlashmoqda (2-rasmda buqa ortida ustiga niqob tashlab olgan odam yonidan ko‘rsatilgan). Kompozitsiyada tasvirlangan baquvvat buqa (novvos) odamlar kelishini sezib qolgandek oyoqlarini oldinga tashlagan holda harakatga tushgandek. Bir qarashda sodda, oddiy bo‘lgan ana shu ibtidoiy san‘at asarining davr mohiyati, inson tafakkuri rivojini bilishda ahamiyati katta. Zarautsoy rasmlari paleolitning so‘nggi bosqichida ishlangan bo‘lib, murakkab kompozitsiyalar esa biroz keyinroq, mezolitning boshlariga to‘g‘ri kelishini olimlar e‘tirof etishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. N.U.Abdullayev, “O‘zbekiston san‘ati tarixi”, Toshkent, 2007 yil.
2. J.Kabirov, A.Sagdullayev, “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” Toshkent, “O‘qituvchi”, 1990 yil.
3. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B., “Surxondaryo tarixi” Toshkent, 2004.
4. www.meros.uz
5. www.arheologija.ru

